

## ALISHER NAVOIY LIRIKASI

**Zayniddinova Sevinch Jaloladdin qizi**

Nizomiy nomidagi TDPU 2-bosqich talabasi

e-mail: [szayniddinova199@gmail.com](mailto:szayniddinova199@gmail.com)

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada buyuk mutafakkir, soʻz mulkinging sultoni hazrat Alisher Navoiy ijodining eng katta qismini tuashkil etuvchi lirik asarlari haqida soʻz yuritilgan. Lirika atamasiga taʼrif berilgan va Alisher Navoiyning gʻazallari, ruboiy va tuyuqlaridan naʼmunalar keltirilib, izohlanib oʻtilgan.

**KALIT SOʻZ:** metod, amaliyot, malaka, koʻnikma, bilm, lirika, gʻazal, ruboiy, shoir, poyeziya, tuyuq, qofiya, maqta, matʼla, radif.

**ANNOTATION:** This article talks about the lyrical works of Hazrat Alisher Navoi, the great thinker, the sultan of words. The term “lyric” is defined, and examples from Alisher Navoi’s ghazals, rubai and tuyuqi are given and explained.

**KEY WORDS:** method, practice, skill, skill, knowledge, lyric, ghazal, rubai, poet, poetry, tuyuq, rhyme, praise, matʼla, radif.

Buyuk mutafakkir, gʻazal mulkinging sultoni, turkiy til asoschisi Alisher Navoiyning bizgacha yetib kelgan va bugungi kunda butun dunyo miqiyosida oʻqib oʻrganilayotgan asarlarining salmoqli qismini lirik asarlar tashkil etishi barchamizga maʼlum. Alisher Navoiy deganimizda eng avvalo koʻz oldimizga eng mashxur gʻazallar, ruboiy va tuyuqlar keladi. Aynan “Gʻazal mulkinging sultoni” deb ardoqlashimizning boisi ham shunda.

Lirika — (yunoncha “Cholgʻu asbobi” degan maʼnoni anglatadi) adabiy tur sifatida qadimdan rivojlanib, oʻzining bir qator xususiyatlariga egadir. Lirikaning bosh obrazi lirik qahramon hisoblanadi. Lirikada lirik qahramonning ichki dunyosi birinchi oʻrinda turadi. Barcha ifoda shoirning „men“i orqali oʻtadi. Lirikada, eposdan farqli oʻlaroq, muayyan epik syujet boʻlmaydi. Dramatik turdan ajralib turadigan jihati esa, Lirikada subʼyektivlik kuchli. Ayni paytda Lirika emotsionalligi, oʻquvchi qalbini hayajonga solishi bilan farqlanadi. Lirik asarda subʼyekt va obyekt bir shaxsda mujassam topadi, undagi markaziy “personaj” ijodkorning oʻzi, yanada aniqrogʻi, uning ichki maʼnaviy-ruhiy olami sanaladi. Lirika ijtimoiy, madaniy, maishiy, ishqiy mavzularni qamrab olishi va juda katta ijtimoiy, estetik mohiyat kasb etishi ham mumkin. Biroq bunda ham, baribir, lirik asar oʻzagida individual shaxs kechinmalari, his-tuygʻulari

yetakchilik qiladi. O'quvchini o'zligiga, o'z ma'naviy-ruhiy dunyosiga nazar solishga undaydi. Lirika qadimda xalq og'zaki ijodi tarkibida mavjud bo'lib, ma'lum bir mavsum, fasl yoki urf-odatlariga bag'ishlab aytilgan.

Alisher Navoiy lirikasiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, buyuk mutafakkir Saddiy, Xofiz, Xisrav Dextraviy va Abduraxmon Jomiy kabi mashhur sharq lirik shoirlarining, Xorazimiy, Sayfi Saroiy, Atoiy, Sakkokiy va Lutfiy kabi o'zbek dunyoviy adabiyoti namoyondalarining eng yaxshi adabiy traditsiyalarini davom ettirdi va rivojlantirdi, xalq poetik ijodiyotining g'oyaviy-badiiy boyliklaridan unumli foydalandi. Badiiy adabiyotning xayotga, jamiyat ehtiyojlariga xizmat qilish uchun kurashgan Navoiy lirik poeziyaning tematikasi, g'oyaviy motivlari va obrzlari sistemasini boyitdi, takomillashtirdi.

Navoiy juda katta va boy lirik xazina yaratib qoldirdi. Bu lirik xazinaning asosiy 45 ming misraga yaqin o'zbek tilidagi sherlarini o'z ichiga olgan "Xazoyin ul –maoniy" va 12 ming misradan ziyod fors-tojik tilidagi sherlarni o'z ichiga olgan "Devoni Foni", fors-tojik tildagi 6 falsafiy qasidadan iborat.

Ruboiy:

\*\*\*

Jonimdag'i, "jim" ikki doling'a fido,  
Andin so'ng "alif" toza niholing'a fido.  
"Nun" idag'i anbarin hiloling'a fido,  
Qolgan ikki nuqta ikki xoling'a fido

\*\*\*

Zohid, sanga hur, manga jonona kerak,  
Jannat sanga bo'lsun, manga mayxona kerak.  
Mayxona aro soqi-yu paymona kerak,  
Paymona necha bo'lsa to'la, yona kerak.

\*\*\*

O'lsam yasamang munda mazorimnin mening,  
Yuklab elting jismi figorimning mening.  
O'tru chiqarib ahli diyorimning mening,  
Ko'yida qo'yung tani nazorimni mening.  
Qit'a.

\*\*\*

Chun g'araz so'zdin erur ma'ni anga,  
Noqil o'lsa xox xotun, xox er.  
So'zchi holing boqma, boq so'z holini,  
Ko'rma kim der ani, ko'rgilkim ne der.

Alisher Navoiy lirikasi o'rta asrlar o'zbek lirikasining eng yuksak bosqichinin tashkil etadi. Ulug' shoir o'zigacha rivojlanib kelgan lirik she'riyatni mavzu, g'oya, vazn va badiiy uslub jihatlari ulkan mehnat va mahorat bilan misli ko'rilmagan darajada takomillashtirdi.

Navoiy turkiy va forsiy tillarda birday mahorat bilan qalam tebratgan zabardast zullisonayn shoir edi. Ammo turkiy tilda she'r bitishda hech kim Navoiydek kamolot qozonmagan. Navoiyning "Orazin yopqach" so'zlari bilan boshlanadigan g'azaliga mavlono Lutfiy bergan bahodan kelib chiqadigan bo'lsak, shoir bu davrda 14-15 yoshlarda edi. Demak, Alisher Navoiy 1455-1456 — yillardayoq shoir bo'lib yetilgan. Shoirning sakkizta devoni mavjud. Shulardan yettitasini rasmiy devon uslubida bevosita Navoiyning o'zi tuzgan. Dastlabki devonni uning mashhur bo'lib ketgan she'rlarini jamlab shoirning zamondoshlari, muxlislari tuzgan. Alisher Navoiy o'zi tuzgan birinchi rasmiy devonini "Badoe ul-bidoya" (Go'zallikning boshlanishi) deb nomlagan. Ushbu devon 1469-yildan keyin, ya'ni Husayn Boyqaro saltanatni qo'lga kiritganidan so'ng, uning topshirig'i bilan tuzilgan.

*Ikkinchi rasmiy asarini Alisher Navoiy "Navodir un-nihoya" (Nihoyasiz nodirliklar) deb atadi. 1480-1487 yillar oralig'ida tuzgan bu devoniga shoir birinchi devoni tuzilganidan keyin yozgan barcha o'zbekcha she'rlarini kiritdi. Alisher Navoiy 1492-1498 yillar mobaynida oldingi rasmiy devonlariga kirgan va keyinchalik yaratilgan she'rlarini hamda muayyan sabablarga ko'ra, avvalgi devonlariga kirmagan o'zbekcha she'rlarini jamlab, to'rt mustaqil devondan iborat lirik qulliyoti "Xazoyin ul-maoniy" (Ma'nolar xazinasi)ni yaratdi. Ushbu lirik qulliyot ulug' shoirning butun umri mobaynida yozgan, 16 lirik turga mansub ellik ming misradan ortiq qariyb hamma o'zbekcha she'rlarini qamrab oldi. Alisher Navoiy umrining oxirlarida Foni taxallusi bilan forsiy tilda yaratgan o'n ikki ming misradan ortiq she'rlarini to'plab, "Devoni Foni" (Foni devoni)ni yaratdi.*

Xulosa qilib aytganda Alisher Navoiy lirikasida tabiat, jamiyat, vatan, komil inson, ma'naviyat, ahloq sohalarininng sanoqsiz muammolari chuqur badiiy tahlil etilgan. Ulug' shoirimizning lirik merosi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan va yoshlar tarafidan sevib mutola qilib kelinmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Alisher Navoiy. Hayrot ul-abror. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. 7 tom. –T. Fan. 1991.
2. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. 8 tom. –T. Fan. 1991.
3. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. 9 tom. –T. Fan. 1992.
4. Alisher Navoiy. Sab’ai sayyor. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. 10 tom. –T. Fan. 1992.
5. Alisher Navoiy. Saddi Iskandari. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. 11 tom –T. Fan. 1993.
6. Alisher Navoiy. Lisonut-tayr. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. 12 tom. –T. Fan. 1996.
7. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. 14 tom. –T. Fan. 1998.
8. Alisher Navoiy. Tarixi muluki ajam. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. 16 tom. –T. Fan. 2020.
9. Komilov N. Tasavvuf. –T. Movarounnaxr – O‘zbekiston. 2009.
10. Choriyev A. Inson falsafasi. Inson to‘g‘risidagi falsafiy fikrlar taraqqiyoti. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. –T. 2007.